

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

FRAZEOLOGIZMLARDA MILLIY-DINIY DUNYOQARASHNING AKS ETISHI: PRAGMATIK VA KOGNITIV TAHLIL

Kurbonova Marguba Sotvoldiyevna

Andijon davlat chet tillari instituti, dotsent (PhD).

e-mail: kmarguba2020@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-7000-3942>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada til egalarining milliy-diniy dunyoqarashi va tafakkur andozalari frazeologik birliklar orqali qanday namoyon bo'lishi kognitiv va pragmatik aspektlarda tadqiq etilgan. O'zbek, ingliz va rus tillaridagi diniy-axloqiy konseptlar ("nur", "qalb", "yo'l", "sinov") qiyosiy tahlil qilinib, ularning tildagi metaforik in'ikosi ochib berilgan. Lisoniy birliklarning nafaqat voqelikni nomlash, balki jamiyatda ijtimoiy-normativ va tarbiyaviy vazifalarni bajarishdagi o'rni asoslangan. Islomiy va xristianlik qadriyatlarining xalq mentalitetiga singishi natijasida yuzaga kelgan lisoniy umumiyliklar va milliy o'ziga xosliklar dalillangan.

Kalit so'zlar: frazeologizm, milliy-diniy dunyoqarash, kognitiv tilshunoslik, konseptual metafora, pragmatika, lingvomadaniyat, tafakkur andozasi.

ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНО-РЕЛИГИОЗНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ ВО ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ: ПРАГМАТИЧЕСКИЙ И КОГНИТИВНЫЙ АНАЛИЗ

Курбонова Маргуба Сотволдиевна

Андижанский государственный институт иностранных языков, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье в когнитивном и прагматическом аспектах исследуется проявление национально-религиозного мировоззрения и моделей мышления носителей языка посредством фразеологических единиц. Проводится сравнительный анализ религиозно-нравственных концептов («свет», «сердце», «путь», «испытание») в узбекском, английском и русском языках и раскрывается их метафорическое отражение в языке. Обосновывается роль языковых единиц не только в номинации действительности, но и в выполнении социально-нормативных и воспитательных функций в обществе. Выявляются языковые общности и национально-культурные особенности, сформировавшиеся в результате интеграции исламских и христианских ценностей в национальное мировоззрение народов.

Ключевые слова: фразеологизм, национально-религиозное мировоззрение, когнитивная лингвистика, концептуальная метафора, прагматика, лингвокультура, модель мышления.

REFLECTION OF NATIONAL-RELIGIOUS WORLDVIEW IN PHRASEOLOGISMS: PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS

Kurbonova Marguba Sotvoldiyevna

Andijan State Institute of Foreign Languages, Associate Professor (PhD).

Abstract.

This article examines, from cognitive and pragmatic perspectives, how the national and religious worldview and patterns of thought of language speakers are manifested through phraseological units. Religious and moral concepts such as "light," "heart," "path," and "trial" in Uzbek, English, and Russian are comparatively analyzed, and their metaphorical representation in language is revealed. The study substantiates the role of linguistic units not only in naming reality but also in performing social, normative, and educational functions within society. It identifies linguistic commonalities and national-cultural specificities that have emerged as a result of the integration of Islamic and Christian values into the collective mentality of different peoples.

Keywords: phraseological unit, national-religious worldview, cognitive linguistics, conceptual metaphor, pragmatics, linguoculture, pattern of thought.

Kirish. Til har bir millatning ko'p asrlik madaniy, tarixiy va ma'naviy tajribasini o'zida saqlovchi hamda avloddan avlodga yetkazuvchi o'ziga xos kognitiv xazinadir. Ushbu lisoniy xazinaning eng qimmatli, ta'sirchan va ma'no jihatdan teran qatlamini, shubhasiz, frazeologizmlar tashkil etadi. Ular nafaqat voqelikni nomlash vositasi, balki xalqning olamni idrok etish usuli, uning ijtimoiy xotirasi va hayotiy xulosalarini aks ettiruvchi yorqin lisoniy ko'zgu hisoblanadi. Frazeologik birliklar qatida yashiringan obrazlar orqali millatning tafakkur andozasi, ruhiyati hamda borliqqa nisbatan hissiy-baholovchi munosabati eng aniq shaklda yuzaga chiqadi.

Insonlarning olamni anglash qoliplari va axloqiy mezonlari, ko'p hollarda, ularning asrlar davomida shakllangan diniy-falsafiy qarashlari negizida yuzaga keladi. Xususan, yirik e'tiqod tizimlari sanalmish islom va xristianlikka xos

bo'lgan fundamental qadriyatlar — halollik, sabr, adolat, rahm-shafqat kabi tushunchalar xalq mentalitetiga chuqur singib ketgan. Bu ma'naviy integratsiya natijasida tillarning leksik-semantik tizimida, ayniqsa, o'zbek, ingliz va rus tillarining lisoniy manzarasida barqaror hamda o'ta ta'sirchan diniy-axloqiy iboralar qatlami shakllangan. Ular nutqda shunchaki informativ axborot uzatish uchun emas, balki qat'iy ijtimoiy-normativ vazifani bajarish, jamiyat a'zolarini to'g'ri yo'lga solish maqsadida xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida lisoniy birliklarni faqatgina struktur (tuzilmaviy) hodisa sifatida emas, balki inson ongi, madaniyati va ijtimoiy xulq-atvorini tartibga soluvchi kognitiv-pragmatik mexanizm sifatida o'rganish o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shunga qaramay, turli genetik oilalarga mansub tillarda (turkiy, slavyan, german) diniy konseptlarning frazeologik sathda qanday yuzaga chiqishi va real muloqotdagi pragmatik ta'sir kuchi izchil qiyosiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi o'zbek, ingliz va rus tillarida faol qo'llanadigan diniy-axloqiy frazeologizmlarning konseptual-metamorik tuzilishini aniqlash hamda ularning jamiyatdagi ijtimoiy-tarbiyaviy, lingvopragmatik kuchini chog'ishtirma dalillar asosida yoritib berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Frazeologizmlarni til, tafakkur va madaniyatning uzviy birligi sifatida o'rganish masalasi jahon, rus va o'zbek tilshunosligida keng ko'lamlil ilmiy tadqiqotlar obyekti bo'lib kelmoqda. Xususan, kognitiv tilshunoslikning poydevori sanalmish J. Lakoff va M. Jonsonlarning "Konseptual metafora nazariyasi" (Conceptual Metaphor Theory) inson mavhum axloqiy va diniy tushunchalarni (masalan, adolat, gunoh, poklik) aynan kundalik hayotdagi jismoniy-fazoviy tajribalar (yo'l, nur, balandlik, tozalik) orqali idrok etishini ilmiy jihatdan isbotlab berdi. Shuningdek, polyak-avstraliyalik olim Anna Verbitskayaning (A. Wierzbicka) "madaniy skriptlar" nazariyasi muhim yutuqlardan sanaladi. U turli tillardagi turg'un birliklar ortida o'sha xalqning diniy e'tiqodlariga asoslangan yashirin ijtimoiy xulq-atvor qoidalari yotishini ta'kidlab, tilning normativ tabiatini ochib bergan.

Rus tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslik va frazeologiya integratsiyasi V. N. Teliya hamda V. A. Maslova kabi yirik olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida frazeologizmlar madaniyat ko'zgusi sifatida baholanib, barqaror birliklarning makrokomponent strukturasi madaniy-diniy konnotatsiyalar yetakchi o'rin tutishi asoslangan. Qolaversa, V. M. Mokiyenko va N. F. Alefirenko kabi olimlar frazeologizmlarning semantik tuzilishi va pragmatik mohiyatini tahlil qilib, ular qabul qiluvchiga hissiy-baholovchi ta'sir ko'rsatuvchi "ideal pragmemalar" ekanligini ta'kidlaydilar.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya masalalari va ularning ma'no taraqqiyoti Sh. Rahmatullayevning fundamental tadqiqotlarida o'zining chuqur lisoniy yechimini topgan. Olim lisoniy birlik sifatida frazemaning ifoda va mazmun jihatlarini bir butunligini asoslab bergan. A. Mamatov va B. Yo'ldoshev kabi olimlar esa iboralarning uslubiy imkoniyatlari hamda ularda milliy mentalitetning in'ikos etish xususiyatlarini tadqiq qilishgan. Shuningdek, M. Umarxo'jayevning frazeologik tizim markazi va periferiyasi, komponentlarning "semantik puchlashuvchanligi" (asl lug'aviy ma'nosini yo'qotishi) nazariyasi barqaror birliklarning kognitiv tabiatini tushunishda beqiyos ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tilshunoslikda frazeologizmlarning lingvomadaniy tabiati va kognitiv-metamorik xususiyatlari alohida tillar doirasida ancha chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, muayyan bo'shliqlar ham ko'zga tashlanadi. Xususan, uch xil til oilasiga mansub (turkiy, german va slavyan) hamda turli diniy qadriyatlar (islom va xristianlik) ta'sirida shakllangan tillardagi aynan diniy-axloqiy konseptlarning (nur, qalb, yo'l, sinov) konseptual-metamorik ifodalanishi chog'ishtirma-qiyosiy tahlilga tortilmagan. Qolaversa, lisoniy birliklarning real ijtimoiy muloqotdagi tarbiyaviy-normativ funksiyalari va ularning lingvopragmatik ta'sir mexanizmlari uch tilli lisoniy materiallar asosida yaxlit tizimga solinmaganligi tadqiqotimizning dolzarbligini belgilab beradi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot kognitiv tilshunoslik va lingvopragmatika tamoyillariga tayangan bo'lib, izlanishda sifat tahlili (qualitative research) hamda qiyosiy-chog'ishtirma dizayn qo'llanildi. Tadqiqot strategiyasi sifatida semantik-kognitiv tahlil hamda lingvomadaniy chog'ishtirish usullari tanlab olindi. Xususan, J. Lakoff va M. Jonsonlarning konseptual metafora nazariyasini tatbiq etgan holda, mavhum diniy-axloqiy tushunchalarning tildagi moddiy in'ikosi va qiyoslanayotgan xalqlarning olamni idrok etish andozalari chog'ishtirma tarzda o'rganildi.

Tadqiqot obyekti va maxsus tanlanma sifatida o'zbek, ingliz va rus tillarida faol qo'llanadigan, o'zida yorqin islomiy va xristian qadriyatlarini mujassam etgan "nur", "qalb", "yo'l", "urug'" va "sinov" konseptlarini ifodalovchi tayanch frazeologik birliklar belgilab olindi. Ma'lumot yig'ish bosqichida maqsadli tanlanma (purposive sampling) usuli orqali har uchala tildagi nufuzli manbalarga murojaat qilindi. O'rganilayotgan empirik lisoniy materiallar jahon va o'zbek tilshunosligida e'tirof etilgan yirik leksikografik manbalardan, muqaddas bitiklardan hamda jonli xalq tilidan yig'ib olindi. Tadqiqot davomida olingan ilmiy xulosalarning ishonchiligi (validity) va xolisligi o'rganilayotgan lisoniy materiallarning faqatgina quruq lug'aviy ma'nosi bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning muqaddas matnlar (Qur'oni karim oyatlari, Injil motivlari) hamda mumtoz va zamonaviy badiiy adabiyotdagi (A. Navoiy, A. Qodiriy, O. Yoqubov va boshqalar asarlaridagi) real nutqiy vaziyatlar doirasida pragmatik tahlilga tortilganligi bilan to'laqonli asoslab beriladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida to'plangan empirik materiallarning lingvokognitiv hamda pragmatik tahlili shuni ko'rsatadiki, islom va xristianlik e'tiqodlariga xos bo'lgan ma'naviy mezonlar o'zbek, ingliz va rus tillarining lisoniy manzarasida o'ta turg'un, ta'sirchan va serqirra frazeologik qoliplarni hosil qilgan. Har bir xalqning olamni idrok etish andozasi (kognitiv modeli) uning tarixiy, madaniy va diniy tajribasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu lisoniy manzaraning markazida insonning axloqiy komillikka intilishi, koinotdagi o'rnini anglashi va Yaratgan bilan munosabatlarini belgilovchi tayanch konseptlar yotadi. Tilshunoslikda konseptlar shunchaki leksik birliklar emas, balki millatning butun boshli qadriyatlar tizimini o'zida mujassam etgan aksiologik (qadriyatli) va mental tugunlar hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda ajratib olingan "nur", "qalb", "yo'l", "urug'" va "sinov" kabi teologik konseptlar muqaddas matnlar hamda milliy tafakkur o'rtasida o'ziga xos kognitiv ko'priq vazifasini o'taydi. Frazeologizmlarning konseptual tuzilishi, asosan, umumbashariy metaforalarga tayanadi va bu metaforalar jismoniy-fazoviy hodisalarni ruhiy-ma'naviy olamga

ko'chirish orqali voqelanadi.

Diniy diskursda eng keng tarqalgan va chuqur semantik qatlamga ega bo'lgan konseptual metaforalardan biri "nur" (yorug'lik) bo'lib, u chog'ishtirilayotgan har uchala tilda ham mutlaq ijobiy qutbni, ilohiy fayz, haqiqat va ezgulik ramzini ifodalaydi. Islom falsafasida nur to'g'ridan-to'g'ri Allohning jamoli va uning hidoyati bilan bog'lanadi. O'zbek tilida insonning ruhiy sofiyati, taqvodorligi va qalb pokligi "yuzida nur bor", "ko'ngli yorishmoq", "nuroniy otaxon" kabi iboralar orqali lisoniy ifodasini topadi. Bu iboralarda fizik yorug'lik to'g'ridan-to'g'ri ma'naviy energiya darajasiga ko'tariladi. Badiiy matnlarda, xususan, Alisher Navoiy va Abdulla Qodiriy asarlarida komil insonning qadami qutlug'ligi aynan uning yuzidagi "ilohiy nur" orqali tasvirlanadi. Xristianlik an'analari ustun bo'lgan ingliz lingvomadaniyatida ham yorug'lik tushunchasi kognitiv jihatdan adashganlarni to'g'ri yo'lga boshlovchi ilohiy belgi sifatida talqin qilinadi. Ingliz tilidagi "guiding light" (yo'l ko'rsatuvchi nur) iborasi insonning ma'naviy kompasini anglatadi, "to see the light" (haqiqatni/nurni ko'rmoq) frazeologizmi insonning ruhiy uyg'onishi, qorong'ulikdan (ya'ni gunoh va jaholatdan) ilohiy ma'rifat sari yuzlanishini bildiradi. Rus tilida bu konsept "свет истины" (haqiqat nuri) yoki "луч света в тёмном царстве" (zulmatdagi nur) kabi turg'un birikmalarda namoyon bo'lib, xristianlikdagi ilohiy ma'rifatni lisoniy jihatdan moddiylashtiradi. Har uchala tilda ham qorong'ulik, zulmat va qora rang gunoh, jaholat hamda yovuzlik konseptlari bilan assotsiatsiya qilinishi konseptual metaforalarning universal tabiatini tasdiqlaydi.

Axloqiy va ma'naviy markaz hisoblangan "qalb" (ko'ngil/сердце/heart) konsepti diniy frazeologiyalarda nafaqat insonning biologik a'zosi, balki ilohiy sirlar va imon saqlanadigan muqaddas idish (konteyner) sifatida talqin etiladi. O'zbek tasavvufiy tafakkurida, xususan, Mashrab, Yassaviy va So'fi Olloyor merosida qalb Yaratganning uyi (baytulloh) sanaladi. Shu sababli o'zbek tilida "ko'ngilni og'ritmoq", "ko'ngli qoraymoq", "qalb ko'zi ochilmoq" kabi iboralar bevosita diniy-axloqiy imperativlar ustiga qurilgan. Birovni xafa qilish, uning diliga ozor berish Ka'bani vayron qilish bilan tenglashtirilishi o'zbek xalqining mentalitetida qalb konseptining naqadar yuqori aksiologik maqomga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu kognitiv model ingliz va rus tillariga ham begona emas. Xristian dinidagi "Tog'dagi va'z" (Sermon on the Mount) motivlariga borib taqaluvchi "pure in heart" (qalbi poklar) ingliz tilida faol qo'llanib, Xudoni ko'rish baxtiga muvaffaq bo'ladigan sof insonlarni anglatadi. Rus tilida ham insonning ichki xotirjamligi va ilohiy ne'matlardan bahramand bo'lishi "с чистым сердцем" (toza qalb bilan) yoki, aksincha, gunoh qilish "брать грех на душу" (gunohini o'z qalbiga/bo'yniga olmoq) kabi frazemalar bilan uyg'unlashgan.

Insonning butun hayoti, uning axloqiy tanlovlari va oxirat sari harakati tilda makon va harakat metaforalari, xususan, "yo'l" konsepti orqali voqelanadi. Barcha qiyoslanayotgan tillarda inson hayoti — bu safar, insonning o'zi — yo'lovchi, axloqiy mezonlar esa — yo'nalish belgilari sifatida konseptualizatsiya qilinadi. Islom dinidagi "sirotul mustaqim" (to'g'ri yo'l) g'oyasi o'zbek tilida "haq yo'lidan yurmoq", "to'g'ri yo'ldan toymaslik" shaklini oladi. Bunga qarama-qarshi holat esa "yo'ldan adashmoq" (shayton vasvasasiga uchib, gunoh ishlar qilish) shaklida ifodalanadi. Ingliz tilida bu axloqiy me'yor va qat'iy talabchanlik "the straight and narrow" (to'g'ri va tor yo'l) iborasi orqali ro'yobga chiqadi. Bu ibora Bibliyadagi "halokatga olib boruvchi yo'l keng, hayotga (najotga) olib boruvchi yo'l tor" ekanligi haqidagi ta'limotdan olingan bo'lib, bugungi kundagi ingliz muloqotida qonun-qoidalarga to'la bo'ysunib, halol yashashni bildiradi. Rus tilida esa "наставить на путь истинный" (haq yo'lga boshlamoq) yoki "сойти с пути" (yo'ldan adashmoq) iboralari inson axloqini muvofiqlashtiruvchi tayanch metaforalar qatoriga kiradi. Odamlarning harakatlari va ularning javobi masalasi esa, asosan, agrar metaforalar orqali yuzaga chiqadi. Diniy-axloqiy imperativ sanalmish va koinotdagi ilohiy adolatni aks ettiruvchi "urug'" (ekin) konsepti o'zbek tilida "yaxshilik urug'ini sochmoq" yoki "nima eksang, shuni o'rasan" qolipida keladi. Ayni shu qonuniyat ingliz tilida "reap what you sow" (Galatiyaliklarga maktubdan olingan), rus tilida esa "что посеешь, то и пожнёшь" ko'rinishida universal dars va ogohlantirish sifatida tilda qat'iy ifodalanadi.

Insonning hayotiy mashaqqatlari va iztiroblarini ifodalashda tillardagi konseptual tafovutlar, o'ziga xos milliy-diniy xususiyatlar yorqinroq ko'zga tashlanadi. Buni "sinov" konsepti doirasidagi frazeologizmlar tahlilida ko'rish mumkin. O'zbek xalqining mentalitetida islomiy qadariylik (fatalizm, peshona yozug'iga ishonish) kuchli bo'lgani bois, qiyinchiliklar ilohiy imtihon sifatida qabul qilinadi. Shu sababli "peshonaga yozilgani", "taqdiri azal", "sabr kosasi to'lmoq" kabi iboralar insonning Yaratgan irodasiga so'zsiz bo'ysunishini, sabr-toqatni ulug'lashni ifodalaydi. Rus pravoslavligida esa qiyinchilik faqatgina imtihon emas, balki ruhiy tozalanish va qutqarilish (spaseniye) vositasi sanaladi. Shu sababli rus tilidagi "нести свой крест" iborasi kognitiv jihatdan insonga yuklatilgan og'ir qismatni so'zsiz va sabr bilan oxirigacha ko'tarishni burch darajasiga ko'taradi. Xuddi shunday, ingliz tilidagi "a cross to bear" (o'z xochini ko'tarmoq) frazeologizmi xristianlikdagi Iso Masihning xoch ko'tarib borgan mashaqqatli yo'li ramzi orqali azob-uqubatni qabul qilish va shaxsiy mas'uliyat hissini anglatadi. Ko'rinish turibdiki, islomiy tafakkurda mashaqqat qismat (taqdir bitigi) sifatida, xristianlikda esa jismoniy va ruhiy yuk (xoch) sifatida moddiylashtirilgan.

Lingvopragmatik nuqtayi nazardan baholanganda, ushbu diniy-axloqiy frazeologizmlar jamiyatda shunchaki tasviriy yoki badiiy bezak vositasi emas, balki kuchli tarbiyaviy, normativ (tartibga soluvchi) va ijtimoiy nazorat mexanizmini bajaradi. Frazeologizmlar nutqiy akt (speech act) sifatida ogohlantirish, maslahat berish, tanbeh berish, ma'qullash yoki duoyi bad qilish kabi bevosita kommunikativ maqsadlarni amalga oshiradi. O'zbek tilidagi "savobi bor", "gunoh bo'ladi", "haromdan hazar qil" kabi turg'un birikmalar insonning kundalik iqtisodiy-ijtimoiy harakatlarini (savdosotiq, oilaviy munosabatlar, qo'shnichilik) bevosita muvofiqlashtiruvchi senzura bo'lib xizmat qiladi. Bu lisoniy xususiyat din axloqi ta'sir ko'rsatgan barcha madaniyatlarga xos universal hodisadir. Masalan, rus tilida pravoslav an'analari jamiyat mentalitetiga shu qadar chuqur singganki, hatto o'ta dunyoviy va norasmiy muloqotlarda ham "Побойся Бога" (Xudodan qo'rq / Insofing bormi?), "Ради Бога" (Xudo haqqi) yoki "Это грех" (Bu gunoh) kabi iboralar orqali suhbatdoshning axloqiy chegaralari belgilanadi. G'arb jamiyati bugungi kunda, asosan, sekulyar (dunyoviy) xarakter kasb etgan bo'lsa-da, ingliz tilidagi tarbiyaviy me'yorlar va xalq maqollari hamon Bibliya motivlariga asoslanadi. Bolani to'g'ri yo'lga solishda e'tiroz bildirish maqsadida "It's a sin" (bu gunoh), o'zaro ijtimoiy munosabatlarda konfliktlarning oldini

olishda "Do unto others as you would have them do unto you" (Axloqning oltin qoidasi: O'zingga ravo ko'rganingni boshqalarga ham ravo ko'r) kabi birikmalar hanuzgacha muvaffaqiyatli va faol qo'llanadi.

Xulosa qilib aytganda, kognitiv va pragmatik tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, diniy-axloqiy frazeologizmlar u qaysi til yoki dinga mansub bo'lishidan qat'i nazar, millatning olamni idrok etish modelini shakllantiruvchi va jamiyatdagi shaxslararo munosabatlarni qat'iy muvofiqlashtiruvchi yagona ijtimoiy-lisoniy hodisadir. Tildagi bu birliklar orqali qadimiy qadriyatlar zamonaviy muloqotga ko'chib o'tadi va turli madaniyatlarda avlodlararo ma'naviy merosning uzluksizligini, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga bevosita, ongsiz ravishda xizmat qilaveradi. Olib borilgan kognitiv va pragmatik tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, din va e'tiqod omili xalqlarning olamni idrok etish lisoniy manzarasini shakllantiruvchi eng qudratli mexanizmlardan biridir. Tadqiqot doirasida qo'yilgan asosiy maqsad va vazifalar to'liq bajarildi: o'zbek, ingliz va rus tillaridagi diniy-axloqiy frazeologizmlar konseptual metaforalar ("nur", "qalb", "yo'l", "urug'", "sinov") asnosida qiyosiy tahlilga tortilib, ularning nafaqat voqelikni nomlash, balki jamiyatda ijtimoiy-normativ, axloqiy va tarbiyaviy vazifalarni bajarishdagi o'rni ilmiy jihatdan to'laqonli asoslab berildi. Islomiy va xristian qadriyatlarining xalq mentalitetiga singishi natijasida yuzaga kelgan kognitiv umumiylik (jismoniy-fazoviy metaforalar) hamda lingvomadaniy o'ziga xosliklar (qadariylik va pravoslav qismat ramzlari) aniq dalillar bilan isbotlandi.

Olingan ilmiy xulosalar va tahlil natijalariga tayangan holda, tilshunoslik, leksikografiya va oliy ta'lim sohasi uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Leksikografik amaliyotda: o'zbek, ingliz va rus tillaridagi diniy-axloqiy iboralarini o'zida qamrab olgan qiyosiy "Konseptual-frazeologik lug'at"lar yaratish zarur. Bunday lug'atlarda har bir iboraning nafaqat semantik ma'nosi, balki uning diniy etimologiyasi, kognitiv-metaforik asosi va lisoniy-pragmatik qo'llanish ko'lamini (muloqotda qanday ijtimoiy ta'sir o'tkazishi) alohida izohlanishi maqsadga muvofiq.

Oliy ta'lim tizimida: filologiya va tarjimonlik yo'nalishlari o'quv dasturlariga barqaror birliklarni shunchaki yuzaki tarjima qilish emas, balki ularning ortida yotgan milliy tafakkur andozalarini chuqur tushunishga qaratilgan "Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik" kabi maxsus amaliy modullarni kiritish tavsiya etiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun: mazkur konseptual tahlil ko'lamini yanada kengaytirib, diniy frazeologizmlarning turli yosh avlod vakillari (masalan, yoshlar va keksalar) nutqidagi psixolingvistik qabul qilinish darajasi va emotsional ta'sirini empirik so'rovnomalar asosida o'rganish istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqot doirasiga sharq tillarini (masalan, arab tilini) ham jalb etish kognitiv tilshunoslikdagi muhim lisoniy bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago; London: University of Chicago Press, 1980. – XIII, 242 p. – ISBN 0-226-46801-1. – URL: <https://find.library.upenn.edu/catalog/994228803503681>
2. Wierzbicka A. *Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations*. – New York; Oxford: Oxford University Press, 1992. – 496 p. – ISBN 978-0-19-507325-6. – DOI: 10.1093/oso/9780195073256.001.0001. – URL: <https://academic.oup.com/book/48331>
3. Mamatov A. E. *O'zbek tili frazeologiyasi: o'quv qo'llanma*. – Toshkent: Navro'z, 2019. – 224 b. – URL: <https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/4106>
4. Rahmatullayev Sh. U. *O'zbek tilining frazeologik lug'ati*. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – 379, [1] b. – ISBN 5-89890-057-8. – URL: https://rusneb.ru/catalog/000200_000018_RU_NLR_BIBL_A_011096362/
5. Умарходжаев М. И. *Основы фразеологии*. – Ташкент: Фан, 1983. – 136 с. – URL: <https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA13333054>
6. Yo'ldoshev B. *Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi*. – Toshkent, 1993. – 297 b. – URL: <https://www.in-academy.uz/index.php/ZDIF/article/view/13652>
7. Алефиренко Н. Ф. *Современные проблемы науки о языке: учебное пособие*. – Москва: Флинта; Наука, 2005. – 416 с. – ISBN 5-89349-573-X; 5-02-032584-8. – URL: <https://www.flinta.ru/book.php?id=320>
8. Маслова В. А. *Лингвокультурология: учебное пособие для студентов высших учебных заведений*. – Москва: Academia, 2001. – 202, [2] с. – ISBN 5-7695-0745-4. – URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01000716161>
9. Мокиенко В. М. *Славянская фразеология: учебное пособие*. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Высшая школа, 1989. – 286, [1] с. – ISBN 5-06-001467-3. – URL: https://rusneb.ru/catalog/002072_000044_ARONB-RU_%D0%90%D1%80%D1%85%D0%B0%D0%BD%D0%B3%D0%B5%D0%BB%D1%8C%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F%D0%9E%D0%9D%D0%91_DOLIB_808.1-318%2075.8%29_%D0%9C74-877882/
10. Телия В. Н. *Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты*. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 284, [2] с. – ISBN 5-88766-047-3. – URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_001737508/